

# Moliyaviy Muassasalarni Kreditlash – Uzbek Leasing International kompaniyasiga kichik biznesni moliyalashtirish uchun kredit ajratish

Davlat:  
O'zbekistan

Loyiha tartib raqami:  
49309

Biznes faoliyat turi:  
Nobank Kredit Tashkiloti

E'lon turi:  
Xususiy

Ekologik tasnifi:  
Moliyaviy muassasa

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:  
16 noyabr, 2017 yil

Tasdiqdan o'tish bosqichi:  
Loyihaning kontsepsiyasi ko'rib chiqilgan

Loyihaning qisqacha mazmuni bo'yicha xulosa chop etilgan sana:  
11 oktyabr, 2017 yil

## Loyiha mazmuni

Loyiha Uzbek Leasing International ("Kompaniya" yoki ULI ) Aksiyadorlik Jamiyatiga 10 million AQSH dollari miqdorida kredit ajratishdan iborat. Loyiha har biri 3 million AQSH dollariga teng ikki transh va 4 million AQSH dollariga teng uchinchi transhdan iboratdir. Ikkinchi va uchinchi transhlar bo'yicha mijozga olish majburiyati yuklatilmaydi.

Kredit ULI tomonidan O'zbekistondagi kichik biznes vakillarining tijoriy maqsadlarda foydalanishi uchun transport vositalari, yuk tashish mashinalari va ishlab chiqarish uskunalari sotib olishlarini moliyalashtirish uchun ajratiladi.

## Loyiha maqsadi

Kichik biznesni moliyalashtirish uchun ajratilayotgan kredit ULI kompaniyasi tomonidan O'zbekistondagi kichik biznes vakillarining o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirishga bo'lgan talablarini qondirish uchun yo'naltiriladi. Shuningdek, loyiha mamlakat kichik biznes vakillarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirilishi orqali iqtisodiyotning real sektoridagi raqobatni yanada kuchayishiga olib keladi.

## **O'tish davri ta'siri**

Loyiha moliyaviy muassasalarni moliyalashtirish konseptual asoslarida ko'rsatilgan maqsadlarning amalga oshishi hamda xususiy kichik biznes vakillari uchun mavjud moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligini yanada kuchayishiga olib keladi. Shuningdek loyiha ULI kompaniyasiga risklarni boshqarish borasida texnik ko'mak ko'rsatish orqali, risklarni boshqarish boshqarmasining tashkil etilishi va xodimlarning treningdan o'tishi, o'z loyihalarini iqtisodiy-moliyaviy tahlilini amalga oshirish va lizing mutaxassislarini treningdan o'tkazilishi, valyuta liberallashtirishdan keyingi marketing strategiyasini ishlab chiqarish orqali uning kichik biznesga xizmat ko'rsatish salohiyatini oshishida xizmat qiladi. Natijada, barqaror moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlovchi qat'iy kreditlash amaliyotlarini yo'lga qo'yish rag'batlantiriladi.

## **Mijoz haqida ma'lumot**

UZBEK LEASING INTERNATIONAL AJ

ULI 1996 yilda tashkil qilingan. Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki (NBU) - 41.6%, O'zbekiston hukumati va Omon hukumatining davlat fondlari ishtirokida qo'shma korxonalar sifatida tuzilgan O'zbekiston-Oman Investitsiya Kompaniyasi ("UzOman") - 38.7% hamda Malayziyaning Malayan Banking Berhad (Maybank) - 19.7% ishtiroki asosida tashkil etilgan.

ULI ning bosh ofisi Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, u mamlakatning 7 ta hududida o'z vakolatxonalariga ega. Kompaniya kichik va xususiy biznes vakillariga keng qamrovli (transport vositalari va uskunalarni moliyalashtirish) lizing xizmatlarini taklif etadi. 2016 yil yakunlariga ko'ra kompaniyaning jami aktivlari 45.2 million AQSH dollari ekvivalenti va sof foydasi esa 7.4 million AQSH dollari ekvivalentiga teng bo'lgan.

## **YTTB ning ULIGA ajratiluvchi moliyaviy mablag'i**

10,000,000.00 AQSH dollari

## **Loyihaning umumiy qiymati**

10,000,000.00 AQSH dollari

## **Ekologik xulosa**

Kompaniya (2014 yilda qabul qilingan Ekologik va ijtimoiy nizomga asosan) moliyaviy muassasa sifatida tasniflanadi. ULI YTTB ning Faoliyat yuritish uchun qo'yiluvchi talablar (Performance Requirements), ya'ni PR2, (Mehnat va ishlash shart-sharoitlari), ya'ni PR4, (Kasbiy sog'liq va ehtiyotkorlik choralari) hamda PR 9 (Moliyaviy muassasalar) talablariga to'liq javob berishi kerak. Bu talablar o'z ichiga YTTBning Lizing faoliyatida Ekologik va

ijtimoiy jarayonlar nizomini ham olib, YTTBning ekologik va ijtimoiy yo'nalishda moliyalashtirilishi ma'n etilgan faoliyat turlari ro'yxatiga amal qilish va kompaniya tomonidan yillik Ekologik va ijtimoiy hisobotlarning topshirilishini ham qamrab oladi.

## Texnik Ko'mak

ULI ga "O'zbekistondagi moliyaviy vositachi muassasalarning salohiyatini oshirish" dasturi doirasida texnik ko'mak ko'rsatiladi. ULI, shuningdek "Markaziy osiyo uchun mintaqaviy kichik biznes dasturi" doirasida ham ko'mak oladi.

## Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Zafar Mustafaev

[uzlease@sarkor.uz](mailto:uzlease@sarkor.uz)

(+998 71) 140-77-44

(+998 71) 140-37-74

[www.uzbeleasing.com](http://www.uzbeleasing.com)

Beshyogoch ko'chasi, 1 uy, Toshkent shahri, 100066, O'zbekiston Respublikasi

## Biznes hamkorligi

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Davlat sektori loyihalari uchun [EBRD Procurement](#) ga murojaat qiling: Tel: +44 20 7338 6794

Elektron manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy so'rovlar

Ta'minot masalalari bilan bog'liq bo'lmagan YTTB loyihalari bo'yicha ma'lumot uchun:

Tel: +44 20 7338 7168

Elektron manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

## Ma'lumotlarni oshkor etish

Ma'lumotlarni oshkor etish siyosati YTTB o'zining strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni qanday oshkor etishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

[Ma'lumotlarni oshkor etish nizomining matni](#)

## Shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi

[Project Complaint Mechanism](#) (PCM), ya'ni shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi YTTBning mas'uliyatni o'z bo'yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxlar va tashkilotlardan YTTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin holatlat bo'yicha shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish uchun [Project Complaint Mechanism](#) sahifasiga tashrib buyuring. Sizning shikoyatlar yuzasidan mavjud har qanday savolingizga Shikoyatlar bilan ishlashga mas'ul mutaxassis ([pcm@ebrd.com](mailto:pcm@ebrd.com)) Shikoyatlar qilish tartibiga muvofiq ([PCM Rules of Procedure](#)) javob beradi.